



O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI XALQ TA'LIMI VAZİRİNİNG BUYRUG'I

Xalq ta'lifi tizimidagi ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning amaldagi tizimini vaqtinchalik tartibga solish to'g'risida

Mamlakatimizga koronavirus infeksiyäsining kirib kelishi va tarqalishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini tayyorlash bo'yicha Respublika maxsus komissiyäsining yig'ilishi bayonlarida belgilangan topshiriqlar ijrosi yuzasidan hamda mavjud sanitariya-epidemiologik vaziyatni inobatga olib, karantin davri mobaynida ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga munosib haq to'lash bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu davr mobaynida davlat budgeti mablag'laridan samarali va oqilona foydalanish orqali xalq ta'lifi tizimidagi xodimlar mehnatiga yarasha haq to'lashni ta'minlash va pirovard natijada ularning turmush darajasini yaxshilash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Biroq, xalq ta'lifi tizimidagi ayrim ta'lim muassasalari tomonidan respublikamizdagi mavjud sanitariya-epidemiologik vaziyatdan foydalangan holda, xodimlar mehnatiga haq to'lashda davlat budgeti mablag'laridan samarasiz va maqsadsiz foydalanish holatlari uchramoqda.

Jumladan, joriy yilning 18-martiga qadar bo'sh (vakant) dars soatlari hisoblangan Sirdaryo viloyati **Oqoltin tumanidagi 2-sonli umumta'lim maktabida** geografiya fanidan 15 soat va iqtisodiy bilim asoslari fanidan 7 soat, **5-sonli umumta'lim maktabida** biologiya fanidan 10,5 soat, **7-sonli umumta'lim maktabida** ingliz tili fanidan 18 soat, **9-sonli umumta'lim maktabida** ingliz tili fanidan 12 soat o'quv soatlari masofaviy tarzda o'qitish uchun o'qituvchilarga taqsimlangan bo'lib, bu esa o'z o'rnida davlat budgeti mablag'larini maqsadli sarflanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yuqorida qayd etilgan holatlarga chek qo'yish va takrorlanishining oldini olish, ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga munosib haq to'lash, shuningdek, respublikamizdagi sanitariya-epidemiologik vaziyat davomida davlat budgeti mablag'laridan yanada samarali va maqsadli foydalanimishini ta'minlash maqsadida, **buyuraman:**

1. Koronavirus pandemiyasi munosabati bilan respublikada mavjud epidemiologik vaziyat barqarorlashgunga qadar ta'lim muassasalarida vaqtinchalik joriy yilning **1-apreliдан boshlab** quyidagilarga **amal qilinsin**:

ta'lim muassasalarining bo'sh (vakant) dars soatlari va lavozimlar bo'yicha shtat birliklariga ishga qabul qilinishi yoki xodimlar o'rtasida taqsimot qilinishi **to'xtatilsin** (homiladorlik va tug'ish ta'tili, bola parvarishlash ta'tilidan xodimlarni ularning roziligi bilan bo'ysunuviga ko'ra tegishli ravishda vazirlik yoki hududiy xalq ta'limi boshqarmalari ruxsati asosida qaytarish holatlari bundan mustasno);

o'qituvchilar va boshqa xodimlarning turli sabablarga ko'ra mehnatga layoqatsizligi davrida (homiladorlik va tug'ish ta'tili hamda boshqa holatlar) bo'lgan hamda bola parvarishlash ta'tiliga chiqqan xodimlarning dars soatlarini xodimlar o'rtasida qayta taqsimlanishiga va bo'shab qolgan lavozimlar bo'yicha shtat birliklariga ishga qabul qilinishiga **yo'l qo'yilmasin**;

o'zining asosiy lavozimining bir haftada 10 soatgacha hajmda o'qituvchi lavozimi bilan qo'shib olib borayotgan direktor, uning o'rindbosarlari va boshqalar, xalq ta'limi boshqaruvi organlari xodimlariga ularning mehnat ta'tili davrida bo'shab qoladigan soatlari) ta'lim muassasadagi mavjud pedagog xodimlar o'rtasida ularning amaldagi **pedagogik yuklamasi doirasida biriktirilishi ta'minlansin**.

Bunda, bo'sh (vakant) dars soatlari (jumladan, direktor, uning o'rindbosarlari va boshqalar, xalq ta'limi boshqaruvi organlari xodimlariga ularning mehnat ta'tili davrida bo'shab qoladigan soatlari) ta'lim muassasadagi mavjud pedagog xodimlar o'rtasida ularning amaldagi **pedagogik yuklamasi doirasida biriktirilishi ta'minlansin**.

2. Ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati (D.Adilbekov)ga:

davlat budjeti mablag'laridan samarali va oqilona foydalanish hamda yuqorida keltirilgan holatlarni oldini olish yuzasidan doimiy kameral nazorat (masofaviy nazorat) o'rnatish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'limi vaziri, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari boshliqlari bilan birgalikda **joriy yilning 18-martidan 1-apreligacha** xodimlarga (homiladorlik va tug'ish ta'tili, bola parvarishlash ta'tilidan xodimlarni ularning roziligi bilan qaytarish holatlari bundan mustasno) biriktirilgan bo'sh (vakant) dars soatlari va lavozimlar bo'yicha shtat birliklarini o'rganib chiqish, zarur hollarda qonunchilik doirasida ularga hisoblangan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni **qayta hisob-kitob qilish** yoki davlat budjetiga **qaytarish choralarini ko'rish**;

o'rganish natijalari hamda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha vazirlik rahbariyatiga tegishli ma'lumotlarni taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

3. Moliyaviy tahlil va rejalahstirish boshqarmasi (I.Siradjev), Xodimlar bilan ishslash boshqarmasi (A.Xasanov) Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi

boshqarmalari bilan birgalikda ta'lim muassasalarining biriktirilmagan bo'sh (vakant) dars soatlari va lavozimlar bo'yicha shtat birliklarini tahlil qilsin.

4. Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi (A.Xasanov), Ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati (D.Adilbekov), Moliyaviy tahlil va rejalashtirish boshqarmasi (I.Siradjev) yuqorida ko'rsatib o'tilgan holatlar kabi xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilayotgan ta'lim muassasalari direktorlari, o'quv va xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rindbosarlar (o'rindbosarlar dahldorlik darajasiga ko'ra), tegishli tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari mudirlari va hududiy xalq ta'limi boshqarmalari boshliqlariga nisbatan o'rnatilgan tartibda intizomiy jazo choralarini qo'llash bo'yicha vazirlik rahbariyatiga taklif kirtsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'limi vaziri, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari boshliqlari, tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari mudirlari va ta'lim muassasalari rahbarlari mazkur buyruqda belgilangan topshiriqlar ijrosini qat'iy ta'minlash yuzasidan **shaxsan javobgar ekanliklari belgilab qo'yilsin.**

Bunda, vazirlikning Ichki audit va moliyaviy nazorat xodimlariga masofaviy nazoratni amalga oshirishda ko'maklashsin va zarur hollarda tasarrufidagi xalq ta'limi muassasalarining "UzASBO" dasturiy majmuasiga ulanish sharoitlarini yaratib bersin.

6. Devonxona (X.Raximbayeva) bir kun muddatda ushbu buyruqni Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi respublika ta'lim muassasalariga yetkazilishini ta'minasin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rindbosari T.Komilov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

Toshkent sh.,
2020-yil "13"-aprel,

105-son

Sh.Shermatov

